



XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 25 - iyul

VI-57-99-5-75-K/23

Tomdi tumani hokimligi

2023 yilning birinchi yarim yilligida tumanda davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2022 yil 30 dekabrda URK-813-sonli Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi tomonidan (31.12.2022 yildagi VI-46-206-5-75-K/22sonli Qarori) 2023 yil uchun tuman mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan bo'lib, mahalliy byudjetining joriy yil birinchi yarim yilligida daromadlari prognoz reja ko'rsatkichi 10 840,2 mln so'm bo'lib, 12 246,8 mln so'mga yoki belgilangan rejaga nisbatan 113,0 foizga bajarilishi xamda mahalliy byudjetining xarajatlari qismiga joriy yilning birinchi yarim yilligida belgilangan reja 38 098,2 mln, so'm bo'lib, 31 630,0 mln. so'mga yoki 83 foizga bajarildi.

Mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar kesimida reja ko'rsatkichlarining bajarilishi quyidagicha.

Jumladan:

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga belgilangan reja 764,4 mln. so'mni tashkil etib, amalda 1032,9 mln. so'mga ya'ni rejaga nisbatan 135,1 foizga bajarildi.

Tuman mahalliy byudjeti daromadlar rejasining asosiy qismi suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq tushumi bo'lib, yillik belgilangan jami daromadlari reja ko'rsatkichlarining 70 foizini tashkil etadi. Joriy yilning birinchi yarim yilligida 7521,5 mln. so'm miqdorida reja belgilanib, 8367,2 mln so'mga ya'ni belgilangan reja ko'rsatkichiga nisbatan 111,2 foizga bajarildi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq turining aniqlangan rejasi 200,4 mln. so'mni tashkil etib amalda 185,1 mln. so'm miqdorida soliq tushirildi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i rejasi 268,5 mln so'mni tashkil etib, haqiqatda 360,9 mln. so'mga bajarildi.

Aksiz solig'i rejasi 1175,8 mln. so'm bo'lib, amalda 1047,8 mln. so'mga bajarildi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun solinadigan soliqlarga belgilangan reja ko'rsatkichi 1128,6 mln. so'm bo'lib, hisobot davrida 1692,7 mln. so'mga bajarildi.

Boshqa tushumlardan 66,3 mln. so‘m tushirildi.

Tuman mahalliy byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni saqlash xarajatlariga xisobot davrida jami 31630,0 mln. so‘m miqdorida moliyalashtirilishi amalga oshirildi.

Jumladan:

Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash xarajatlariga 2770,0 mln.so‘m moliyalashtirib berildi.

Xalq ta‘lim muassasalarini saqlash xarajatlariga 3537,6 mln. so‘m hamda Maktabgacha ta‘lim muassasalariga 1199,0 mln. so‘m ajratilib, moliyalashtirilishi ta‘minlandi.

Shuningdek Sog‘liqni saqlash muassasalarini saqlash xarajatlariga 10662,1 mln. so‘m moliyalashtirildi.

O‘z navbatida tuman Madaniyat bo‘limiga va Axborot kutubxona markazlariga 924,5 mln. so‘m hamda Bolalar va usmirlar sport maktabiga 1064,2 mln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

Veterinariya va Labaratoriya bo‘limlarini saqlash harajatlariga 928,1 mln. so‘m mablag‘ ajratildi.

Davlat organlarini saqlash xarajatlariga 6229,7 mln. so‘m va o‘zini-o‘zi boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga xisobot davrida 442,2 mln. so‘m mablag‘ ajratildi.

Tuman Ijtimoiy moslashuv markazini saqlash xarajatlariga 26,6 mln. so‘m mablag‘ ajratilib, moliyalashtirilishi ta‘minlagan.

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirilishini moliyaviy ta‘minlash maqsadida aholini ijtimoiy himoyalash va turmush farovonligini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga 1065,8 mln.so‘m byudjet mablag‘lari sarflandi. Shundan, 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan nafaqa oluvchilarga 1043,3 mln. so‘mlik, kam ta‘minlangan oilalarga 22,5 mln. so‘mlik moddiy yordam pullari o‘z vaqtida to‘liq moliyalashtirib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash buyicha qushimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi PQ-5072-sonli qaroriga asosan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga” 3000,0 mln. so‘m ajratildi.

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan byudjet parametrada kuzda tutilmagan xarajatlarni hamda yuzaga kelgan kommunal va boshqa qarzdorliklarni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida joriy yilning 6 oyligida jami 1655,0 mln. so‘m mablag‘ ajratildi. Shundan yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 991,5 mln so‘m, mahalliy byudjetning daromadlarining rejadan orttirib bajarilgan qismi hisobidan 509,1 mln so‘m, mahalliy byudjetning zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 154,4 mln. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Mazkur qo‘shimcha mablag‘lar hisobidan qo‘yidagi harajatlar amalga oshirilgan.
Jumladan:

Ayollar va Yoshlar daftariga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy va moddiy qo‘llab

quvvatlash harajatlariga 482,2 mln.so‘m, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga” 482,2 mln. so‘m hamda boshqa kreditorlik qarzlarni qoplashga 43,0 mln. so‘m, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federasiyasi tasarufidagi Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligiga ko‘maklashish jamg‘armasiga 60,8 mln so‘m, 586,6 mln so‘m kreditor va boshqa harajatlarga.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi 27, 99-moddalari, “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2023 yilning birinchi yarim yilligida tumanda davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining ijrosi to‘g‘risida tuman moliya bo‘limi mudiri Q.Igilikovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) va tuman moliya bo‘limi (Q.Igilikov) tuman hokimi bilan tuman mahalliy byudjetining 2023 yil birinchi yarim yilligida daromadlarining belgilangan rejasi daromad turlari bo‘yicha ijrosini hamda Hukumat tomonidan belgilangan qo‘shimcha daromadlar manbasini aniqlab, mahalliy byudjetga tushumini ta‘minlasin.

3. Mahalliy byudjetning 2023 yil birinchi yarim yilligida yakuni bilan aniqlanadigan qo‘shimcha manbalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birinchi navbatda Hukumat qarorlari, bayonlari va dasturlaridagi tadbirlarga hamda ijtimoiy soha ob‘yektlarini tayyorlash xarajatlariga yo‘naltirilsin.

4. Byudjet tashkilot va muassasalari hamda byudjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (L.Bayanasov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



K.T.Aldabergenov